

PRESS-RELIZ

Samarqandda “Yilning eng faol maxsus pedagogi” tanlovining viloyat bosqichi o‘tkazilmoqda

Samarqand shahridagi 13-umumta’lim maktabida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining inklyuziv ta’lim sinflarida faoliyat yuritayotgan maxsus pedagoglar o‘rtasida “Yilning eng faol maxsus pedagogi” tanlovining viloyat bosqichi bo‘lib o‘tmoqda.

Mazkur tanlov inklyuziv ta’lim sifatini oshirish, maxsus pedagoglarning kasbiy mahoratini qo‘llab-quvvatlash, ilg‘or ish tajribalarini aniqlash va ommalashtirish maqsadida tashkil etilgan.

Tanlov quyidagi 3 ta shart asosida o‘tkazilmoqda:

amaliy ochiq korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulot;

“Mening pedagogik faoliyatim” mavzusidagi taqdimot;

kasbiy bilim va kompetensiyalar sinovi (savol-javob).

Tanlov jarayonida ishtirokchilarning innovatsion pedagogik yondashuvlari, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashdagi tajribasi, zamonaviy metodlarni qo‘llash ko‘nikmalari hamda kasbiy kompetensiyalari baholanmoqda.

Tanlov nizomiga muvofiq, unda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining inklyuziv ta’lim sinflarida faoliyat olib borayotgan maxsus pedagoglar ishtirok etmoqda.

Mazkur tanlov inklyuziv ta’lim tizimida mehnat qilayotgan maxsus pedagoglarning fidokorona mehnatini e’tirof etish, ularning professional salohiyatini namoyon qilish, shuningdek, ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ma'lumot uchun, bugungi kunda Samarqand viloyatidagi 216 ta umumta'lim maktabining 266 ta inklyuziv ta'lim sinflarida 370 nafar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar ta'lim olmoqda. Ular bilan 241 nafar maxsus pedagog tomonidan korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar olib borilmoqda.

Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi axborot xizmati